

tahlilini ta'minlash uchun o'zgaruvchilarning o'zaro bog'liqligini baholaydi. Stata 17 dasturida Scree Plot - Omillar tahlilida omillar yoki asosiy komponentlarning xos qiymatlarining chiziqli grafigi tahlili ham ko'rib chiqildi. Bu tanlash kerak bo'lgan omillar sonini aniqlashda foydalaniladi. Yana Box Plot tekshiruvi natijasida besh raqamdan iborat xulosaga asoslangan ma'lumotlar to'plamining taqsimlanishining grafik tasviri: minimal, birinchi kvartil, median, uchinchi kvartil va maksimal darajaga ajratildi. Bunga oxshash taxlillarning bir qanchasi o'tkazilib ta'siri statistik jihatdan ahamiyatli hamda ahamiyatsiz bo'lgan omillar aniqlandi.

Ushbu jadvalda so'rovnomada ishtirok etgan jami omillarning 14tasi ko'rsatib o'tilgan:

1-jadval

Xizmatlar bozori raqobatbardoshligi latentini tuzish omili taxlili

Variable	Factor1	Factor2	Factor3	Factor4	Factor5	Factor6	Uniqueness
MTB_bahosi	0.749	0.008	0.078	0.054	-	0.256	0.337
Oqitish_si~i	0.810	0.028	0.141	0.050	-	0.036	0.287
Almashinuv~i	0.020	0.196	0.624	0.352	-	0.195	0.315
Ishga_joyl~i	0.692	0.135	0.057	0.086	-	0.018	0.457
Xalqaro_ma~a	0.088	0.321	0.729	0.048	-	0.057	0.349
Til_sertif~i	0.061	0.420	0.295	0.616	-	0.322	0.250
Nazariya_a~i	0.449	0.017	0.175	0.286	-	0.258	0.509
Platforma_~i	0.315	0.059	0.051	0.251	-	0.214	0.403
OTM_xizmat~i	0.423	0.119	0.014	0.062	-	0.196	0.651
Start_up	0.070	0.582	0.021	0.313	-	0.392	0.401
Patentlar	0.049	0.589	0.044	0.457	-	0.044	0.436
Masofaviy_~h	0.025	0.542	0.355	0.324	-	0.236	0.400
Magistratu~i	0.333	0.001	0.089	0.192	-	0.519	0.479
Yarim_stav~h	0.044	0.504	0.156	0.148	-	0.409	0.357

Faktorlarni ajratib olish kuzatilgan o'zgaruvchilar orasidagi korrelyatsiyani hisobga oladigan asosiy omillarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Faktorlarni ajratib olishning keng tarqalgan usullariga asosiy komponentlar tahlili (PCA), asosiy o'q faktoringi (PAF) va maksimal ehtimollikni baholash (MLE) kiradi. Har bir usulda kuzatilayotgan o'zgaruvchilar

orasidagi korrelyatsiyani tushuntiruvchi asosiy omillarni aniqlash uchun o'z algoritmi mavjud. Omil vazni kuzatilgan o'zgaruvchilar va olingan omillar o'rtasidagi korrelyatsiyani ifodalaydi. Ushbu yuklamalar har bir o'zgaruvchi va har bir omil o'rtasidagi munosabatlarning kuchi va yo'nalishini ko'rsatadi. Faktor yuklarining yuqoriligi ($> 0,3$ yoki $0,4$) o'zgaruvchilar va omillar o'rtasidagi kuchli bog'lanishni ko'rsatadi.

1-omil 2,309 ning eng yuqori o'z qiymatiga ega, bu ma'lumotlar to'plamidagi eng ko'p farqni tushuntiradi. Keyingi omillar asta-sekin kam farqni tushuntiradi. 1 dan kichik o'ziga xos qiymatlar odatda shovqin yoki o'lchash xatosi hisoblanadi va ko'pincha omillar sifatida saqlanmaydi. Biroq, sizning chiqishingizda, o'z qiymati 1 dan katta bo'lgan barcha omillar saqlanib qolgan. Masalan, "O'qitish_sifatini_baholash" o'zgaruvchisi 1-omil bo'yicha 0,810 omil yuklanishiga ega bo'lib, bu omil bilan kuchli ijobiy bog'lanishni ko'rsatadi.

Tadqiqotimiz so'rovnoma to'rt turdagi oliy ta'lim muassasalari talabalaridan o'tkazilgan bo'lib, davlat, nodavlat, xorijiy hamda qo'shma ta'lim dasturi asosida tahsil olayotgan talabalarining fikrlari inobatga olingan. Jadvalda qisqartirilgan so'rovnoma savollari ushbu ko'rinishda bo'lgan:

1.Oliy ta'lim muassasangizning moddiy texnik bazasi darajasini baholang (bino, xonalar, kompyuterlar, bibliotekasi)

2.Oliy ta'lim muassasangizda o'qitish sifatini qanday baholaysiz?

3.Guruhingizdan necha nafar talaba xorijiy oliy ta'lim muassasasida almashinuv dasturida o'qiydi?

4.Ishga joylashish imkoniyatingizni baholang

5.Xalqaro ilmiy platformalarda nechta maqolangiz mavjud?

6.Til sertifikatigiz bormi?

7.Nazariya darslari bilan amaliyot bog'langan fanlar mavjudmi?

8.Hemis platformasida kontentlar to'liqmi?

9.Oliy ta'lim xizmatlari bozorini asosiy ustunligi nimada

10.Start up yoki loyihalar muallifimisiz?

11.Potent va mualliflik guvohnomangiz bormi?

12.Xalqaro masofaviy kurslarda oqiganmisiz?

13.Magistraturada o'qish niyatingiz bormi?

14.O'qish bilan birga 0.5 stavkada ishlaysizmi?

Ushbu o'tkazilgan so'rovnoma natijalari 500ta talabadan yig'ib olinib omillarning o'zaro ta'siri o'rganib chiqilgan. Birinchi darajali oddiy to'g'ri chiziqli regressiya, multikoliniallik testi natijalari hamda regressiyadan so'ngi qoldiqlarning normal taqsimot testlari natijalari jamlanib ta'siri bor omillar aniqlangan. U omillar kelajakda bizga ular ustida ko'proq ishlash yoki aksincha ularni omil sifatida qaramalik kerakligi bildiradi.

Iii.tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot obyekti sifatida davlat, nodavlat, xorijiy hamda qo'shma ta'lim dasturi muassasalari olingan. Tadqiqot predmeti sifatida ushmu oliy ta'lim muassasalarida taqsim olayotgan talabalar olingan. Tadqiqotda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, ekonometrika ulullarida foydalanilgan.

Iv.Xulosa Va Takliflar

Xulosa sifatida regressiya tahlili talabalarning xizmat ko'rsatish bozorida raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi bir qancha muhim omillarni aniqlandi. Model tafovutning ozgina qismini tushuntirsa-da, bu statistik ahamiyatga ega va natijalar bozorda talabalarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan siyosatchilar va ta'lim muassasalari uchun ijobiy natija hisoblanadi. Ushbu omillarni bartaraf etish talabalarning umumiy bozorga tayyorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun yanada maqsadli va samarali strategiyalarni ishlab chiqishga olib kelishi mumkin. Raqobatbardoshlikni kengayishi natijasida ta'lim muassasalari o'rtasida tanlov imkoniyatlari, marketing faoliyati, dasturiy innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik shakllari faol rivojlanadi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ichki raqobatning rag'batlantirilishi ya'ni professor-o'qituvchilar salohiyati, ilmiy faoliyat ko'rsatkichlari, o'quv rejalari sifatining baholanishi raqobat muhitining chuqurlashuvi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalilganadabiyotlar ro'yhadi:

1.Kuldashv Sh.A. Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobat ustunligini ta'minlash omillari va ko'rsatkichlari.

"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, №1(15), 2024.

<https://interjournal.uz/index.php/journals/article/download/224/204/645>

2.L.Tsymbal, I.Kalenyuk. (2023). 7. Digital transformation of the global education market. Baltic Journal of Economic Studies, doi: 10.30525/2256-0742/2023 9-5-266-274

3.Harald, B. Clusters and knowledge: local buzz, global pipelines and the process of knowledge creation / B. Harald, M. Anders, P. Maskell. – DOI 10.1191/0309132504ph469oa // Progress in Human Geography. – 2004. – Vol. 28, Iss. 1.– P. 31–56.

INNOVATIVE
ACADEMY